

Date: 19th June-2026

JAMILA ERGASHEVANING “ZULFIZAR” QISSASINING KOMPOZITSION
VA SYUJET QURILISHI

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jamila Ergashevaning “Zulfizar” qissasining syujet va kompozitsion qurilishi tahlil qilinadi. Asardagi retrospektiv syujet, psixologik tasvir vositalari, voqealar rivojining badiiy asoslari hamda kompozitsion unsurlarning qahramon xarakterini ochishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot davomida qissadagi syujet turlari va ularning badiiy-estetik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: syujet, kompozitsiya, retrospektiv syujet, psixologik syujet, xronikal syujet, konflikt, obraz, badiiy mahorat, Zulfizar.

COMPOSITIONAL AND SUJET STRUCTURE OF JAMILA ERGASHEVA’S
NARRATORY “ZULFIZAR”

Abstract: This article analyzes the plot and compositional structure of Jamila Ergasheva’s novella “Zulfizar”. The role of the retrospective plot, psychological means of depiction, the artistic foundations of the development of events, and compositional elements in revealing the character of the hero is highlighted. During the research, the types of plots in the novella and their artistic and aesthetic significance are scientifically analyzed.

Keywords: plot, composition, retrospective plot, psychological plot, chronicle plot, conflict, image, artistic skill, Zulfizar.

КОМПОЗИЦИОННОЕ И СЮЖЕТНОЕ ПОСТРОЕНИЕ ПОВЕСТИ ЖАМИЛЫ
ЭРГАШЕВОЙ “ЗУЛЬФИЗАР”

Аннотация: В данной статье анализируется сюжетная и композиционная структура повести Джамилы Эргашевой “Зульфизар”. Освещается роль ретроспективного сюжета, средств психологического изображения, художественных основ развития событий и композиционных элементов в раскрытии характера героя. В ходе исследования научно анализируются виды сюжета в повести и их художественно-эстетическая значимость.

Ключевые слова: сюжет, композиция, ретроспективный сюжет, психологический сюжет, хроникальный сюжет, конфликт, образ, художественное мастерство, Зульфизар.



Date: 19th June-2026

Zamonaviy o'zbek nasrida inson ruhiyati va taqdirini chuqur tasvirlashga intilish kuchayib bormoqda. Jamila Ergashevaning "Zulfizar" qissasi ham mana shu yo'nalishda yozigan asarlardan biridir. Asarda bir ayolning murakkab hayot yo'li, urush yillari bilan bog'liq xotiralari, oilaviy muammolar va insoniy munosabatlar badiiy jihatdan yoritilgan. Qissaning g'oyaviy-badiiy qimmatini syujet va kompozitsiyaning o'zaro uyg'unligi orqali yanada kuchaygan. Shu sababli asarning syujet va kompozitsion qurilishini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. "Zulfizar" qissasining kompozitsiyasi murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda hozirgi zamon voqealari bilan o'tmish xotiralari o'zaro uyg'unlashib ketgan. Muallif asarni Zulfizarning kasalxonaga tushishi bilan boshlaydi. Ushbu voqea kompozitsion markaz vazifasini bajaradi. Keyingi boblarda qahramonning bolalik va yoshlik davri, urush yillaridagi hayoti, oilaviy munosabatlari xotiralar orqali ochib beriladi.

Kompozitsiyada tush motivlari, ichki monologlar va xotiralar muhim o'rin egallaydi. Ular qahramon ruhiyatini yoritishga xizmat qiladi. Muallif voqealarni oddiy ketma-ketlikda emas, balki qahramon tafakkuri bilan bog'liq holda joylashtiradi. Natijada asarda vaqt va makon chegaralari kengayadi, qahramon hayoti yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kompozitsiyaning yana bir muhim jihati shundaki, qissadagi deyarli barcha voqealar Zulfizar obrazi bilan bog'liq holda rivojlanadi. Shu sababli asar markazida qahramon shaxsi va uning taqdiri turadi. Boshqa obrazlar ham aynan Zulfizar xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Jamila Ergashevaning "Zulfizar" qissasi syujet qurilishi jihatidan o'zbek nasridagi psixologik yo'nalishdagi asarlar qatorida alohida o'rin egallaydi. Asarda voqealar oddiy xronologik ketma-ketlik asosida emas, balki bosh qahramonning xotiralari, ruhiy kechinmalari va ichki mushohadalari orqali yoritiladi. Shu jihatdan qissa syujeti retrospektiv, psixologik va qisman xronikal syujet xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Asar syujetining asosiy tuguni Zulfizarning qizi Soraning uyida kutilmagan holatga duch kelishi bilan boshlanadi. U kuyovi G'anisherning xiyonatiga guvoh bo'ladi va bu voqea qahramonning ruhiy olamida keskin burilish yasaydi. Kuchli ruhiy zarba natijasida Zulfizar yurak xurujiga uchraydi va kasalxonaga tushadi. Muallif aynan shu nuqtadan boshlab qahramonning o'tgan hayotini xotiralar orqali ochib boradi. Natijada syujetning asosiy rivoji bugungi voqealar bilan o'tmish voqealarining o'zaro almashinuvi asosida shakllanadi. Qissada retrospektiv syujet yetakchi o'rin tutadi. Muallif qahramonning hozirgi hayotidan o'tmishiga qaytish orqali uning xarakterini bosqichma-bosqich ochib beradi. Kasalxonada yotgan Zulfizar bolalik yillari, urush davridagi mashaqqatlar, momosi Ulton kampir, onasi Oysulton xola, akalari va yaqinlari bilan bog'liq voqealarni eslaydi. Ushbu xotiralar qahramonning bugungi ruhiy holatini anglashga yordam beradi. Retrospektiv tasvir usuli tufayli o'quvchi voqealarni nafaqat kuzatadi, balki ularning qahramon taqdiriga ta'sirini ham chuqur his qiladi.

Qissa davomida psixologik syujet unsurlari ham ustunlik qiladi. Voqealarning tashqi harakatidan ko'ra qahramonning ichki dunyosi, iztiroblari va o'y-kechinmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Zulfizar o'z hayotini tahlil qiladi, o'tgan voqealarga qayta

Date: 19th June-2026

baho beradi va ayrim qarorlarining oqibatlari haqida o'ylaydi. Ayniqsa, Jo'ra muallimning samimiy muhabbatini rad etgani, keyinchalik qizi Soraning oilaviy fojeasiga duch kelishi qahramon ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Shu sababli asar syujeti ko'proq inson qalbidagi ziddiyatlar va kechinmalar asosida rivojlanadi. Qissada xronikal syujet elementlari ham uchraydi. Muallif Zulfizarning bolalik davridan boshlab keksalik yillarigacha bo'lgan hayot yo'lini tasvirlaydi. Urush yillari, maktabdagi faoliyati, partiya ishlaridagi ishtiroki, oilaviy hayoti va farzandlari bilan bog'liq voqealar qahramon umrining turli bosqichlarini aks ettiradi. Biroq bu voqealar qat'iy vaqt ketma-ketligida emas, balki xotiralar vositasida berilgani sababli xronikal syujet retrospektiv syujet bilan uyg'unlashib ketadi. Syujet tarkibidagi asosiy unsurlar ham mantiqiy izchillik asosida qurilgan. Ekspozitsiyada Zulfizarning qizi uyiga kelishi va oilaviy muhit tasvirlanadi. Tugun qahramonning kuyovi xiyonatini ko'rishi bilan yuzaga keladi. Voqealar rivojida Zulfizarning o'tmish hayoti bilan bog'liq epizodlar ochib beriladi, kulminatsiya G'anisherining oilani tark etish va boshqa ayol bilan hayot qurish niyatini bayon qilishi bilan bog'liq jarayonlarda aks etadi. Yechim esa qahramonning hayotiy haqiqatlarni anglab yetishi va insoniy qadriyatlar haqida chuqur xulosaga kelishida namoyon bo'ladi. "Zulfizar" qissasining syujet qurilishi murakkab va serqatlamdir. Muallif retrospektiv tasvir, psixologik tahlil va xronikal voqealar uyg'unligi orqali bosh qahramonning ruhiy olamini teran ochib beradi. Natijada asar syujeti nafaqat voqealar rivojini, balki inson taqdiri va qalb kechinmalarini ham badiiy jihatdan mukammal aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Jamila Ergashevaning "Zulfizar" qissasi zamonaviy o'zbek nasrining yuksak badiiy namunalaridan biri bo'lib, unda inson taqdiri, oilaviy munosabatlar, urushning inson ruhiyatiga ta'siri hamda avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlik masalalari chuqur yoritilgan. Asarning badiiy qimmati, avvalo, syujet va kompozitsiyaning puxta qurilganida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qissada retrospektiv syujet yetakchi o'rin egallaydi, muallif qahramonning bugungi hayotidan o'tmishiga murojaat qilish orqali uning xarakterini, hayotiy tajribalarini va ruhiy olamini bosqichma-bosqich ochib beradi. Shuningdek, asarda psixologik syujet unsurlari ham muhim ahamiyat kasb etib, qahramonning ichki kechinmalari, armonlari, xotiralar va hayotiy xulosalari voqealar rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Kompozitsion jihatdan qaranganda, asardagi barcha voqealar va obrazlar Zulfizar shaxsini ochishga xizmat qiladi. Ulton kampir, Oysulton xola, Jo'ra muallim, Sora va G'anisher kabi obrazlar qahramon xarakterining turli qirralarini yoritishda muhim vazifani bajaradi. Muallif ichki monologlar, dialoglar, xotiralar va ruhiy tahlil vositalaridan unumli foydalanib, qahramonning murakkab ichki dunyosini badiiy jihatdan ishonarli tasvirlay olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

Date: 19th June-2026

4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
5. Rasulov A. Badiiylik mezonlari. – Toshkent: Fan, 2011.
6. Ziya.uz kutubxonasi

